

KASBIY TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Surxondaryo viloyati oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar boshqarmasiga qarashli
Qumqurg'on tuman 1-son texnikumi
O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
Almuratov Normurat Raxmatovich

Annotatsiya: XXI asrda taraqqiy etayotgan davlatlarning bosh maqsadi yetuk, bilimli va malakali kadrlar tayyorlashdan iborat. Jamiyat taraqqiyotida kasbiy ta'limning o'rni va ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Zamonaviy davrda mavjud ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish, ilg'or texnologiyalardan foydalanish va natijada mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash uchun zamonaviy kasb-hunarlarini chuqur egallagan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar zarur. Shu bois, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularga o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlariga sharoit yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, islohotlar, chora-tadbirlar, malakali kadrlar, zamonaviy ta'lim, ishlab chiqarish, o'quv dasturlari, ta'lim sifati, pedagogik usullar, mehnat bozori.

Аннотация: Основной целью развивающихся стран в XXI веке является подготовка зрелых, образованных и квалифицированных кадров. Роль и значение профессионального образования в развитии общества с каждым годом возрастают. В современную эпоху для развития действующих отраслей производства, создания конкурентоспособной продукции, использования передовых технологий и, как следствие, укрепления экономики страны необходимы кадры, обладающие глубокими знаниями и навыками современных профессий. Поэтому на сегодняшний день одним из приоритетов государственной политики в Республике Узбекистан

является коренное реформирование системы профессионального образования, выведение ее на уровень современных требований, подготовка квалифицированных специалистов и создание условий для реализации ими своего потенциала.

Ключевые слова: профессиональное образование, реформы, меры, квалифицированные кадры, современное образование, производство, учебные программы, качество образования, педагогические методы, рынок труда.

Abstract: The main goal of developing countries in the 21st century is to train mature, educated and qualified personnel. The role and importance of vocational education in the development of society is increasing year by year. In the modern era, to develop existing production sectors, create competitive products, use advanced technologies and, as a result, strengthen the country's economy, personnel with deep knowledge and skills of modern professions are needed. Therefore, today, one of the priorities of state policy in the Republic of Uzbekistan is to radically reform the vocational education system, bring it up to the level of modern requirements, train qualified specialists and create conditions for them to realize their potential.

Keywords: vocational education, reforms, measures, qualified personnel, modern education, production, curricula, quality of education, pedagogical methods, labor market.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida kasbiy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirish uchun Prezident tomonidan qator chora-tadbirlar belgilangan. Qarorga ko'ra, kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatini zamonaviy me'yor va talablar asosida tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etish, ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikni kuchaytirish va malakali ishchi kasb egalari tayyorlash chora-tadbirlari ko'zda tutiladi. Kasbiy ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlari yangi texnologiyalar va bozor iqtisodiyoti ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi, zamonaviy o'quv usullari joriy qilinadi. Kasbga o'qitish jarayonida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik asosida o'quv amaliyotlari tashkil etiladi hamda bitiruvchilar ish bilan ta'minlashga ko'maklashish tizimi yo'lga

qo'yiladi. Kasbiy ta'lim tashkilotlari moddiy-texnik bazasi mustahkamlanadi, zamonaviy laboratoriya va o'quv jihozlari bilan ta'minlanadi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi takomillashtirilib, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish uchun xorijda ham malaka oshirishga imkoniyat yaratiladi. O'qituvchilar faoliyatini baholash va ularga rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi. Kasbiy ta'lim tizimi islohotlariga xalqaro tashkilotlar, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari va ekspertlarni jalb qilish belgilangan. O'quvchilar orasida zamonaviy kasblarga qiziqishni oshirish, startap va tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun alohida dasturlar joriy etiladi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida kasbiy ta'lim tizimi zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh, malakali va yuqori saviyadagi mutaxassislarni tayyorlash uchun mustahkam asos yaratadi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tub ildizdan, ya'ni tizimning har bir bo'g'inini, o'qitish jarayonidan tortib, bitiruvchilarni mehnat bozoriga joylashtirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni to'liq o'z ichiga oladi. Har bir islohot o'z-o'zidan emas, balki chuqur o'ylangan, hayotiy ehtiyojlar va zamonaviy iqtisodiy rivojlanish yo'nalishiga mos tarzda amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalardan biri – kasbiy ta'lim muassasalarini zamonaviy moddiy-texnik baza bilan ta'minlash, yangi ta'lim dasturlarini joriy qilish va o'quv jarayonini ilg'or pedagogik usullar asosida tashkil etishdir. Shu bilan birga, xalqaro tajribani o'rganib, ilg'or texnologiyalarni kasbiy ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali sohaning samaradorligini yanada oshirish ko'zda tutilmoqda. Kasbiy ta'lim tizimini isloh qilishda ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, o'quvchilarni zamonaviy kasb va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga imkon beradigan sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or xorijiy tajribaga asoslangan holda, o'qitish jarayonida amaliy mashg'ulotlar salmog'ini oshirish, ishlab chiqarish korxonalari bilan samarali hamkorlikni kuchaytirish, bitiruvchilarni ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, kasbiy ta'lim tizimi uchun malakali o'qituvchilar korpusini shakllantirish, ularni zamonaviy

ko'nikmalarga o'rgatish va doimiy malaka oshirish jarayonlarini tashkil etish sohadagi islohotlarning asosiy tarkibiy qismidir [1].

Kasbiy ta'lim tizimida raqamlashtirish va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o'quv jarayonida zamonaviy uslublarni joriy qilish, o'quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag'batlantiruvchi sharoitlarni yaratish sohaga bo'lgan talab va qiziqishni oshiradi. Ayniqsa, kasb-hunar maktablarining texnik jihozlari, zamonaviy laboratoriyalar va axborot-resur markazlarini barpo etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun muhim omil hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari hamda professional ta'lim muassasalari o'rtasidagi uzviy aloqalarni kuchaytirish orqali kadrlarning uzluksiz rivojlanishiga keng imkoniyat yaratiladi. Bu esa, bir tomondan, o'qituvchilarning bilim darajasini oshirsa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning tanlagan kasbi bo'yicha chuqur bilim va tajriba orttirishiga yordam beradi. Kasbiy ta'lim sohasini isloh qilishda o'quv-reja va dasturlarni zamonaviy ishlab chiqarish talablari darajasida shakllantirish, yangi kasblarni o'rgatish hamda mavjud ixtisosliklarni zamon talabiga mos ravishda yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, sanoatning so'nggi yutuqlari va innovatsion ishlanmalarni o'quv jarayoniga joriy etish, zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanish asosiy vazifalardan biridir. Bitiruvchilarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni amaliyot o'tkazish jarayonida real ishlab chiqarish muassasalarida ishtirok etishini ta'minlash – sohaga yangicha ruh bag'ishlaydi. Shu tarzda, kadrlarni bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq tayyorlash, ularning zamon bilan hamnafas yurishi, kasbiy rivojlanishlaridan orqada qolmasliklarini ta'minlash asosiy maqsadlardandir [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kasbiy ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishda davlatning roli benihoya katta. Yangi qonun va qarorlar, prezident farmonlari va hukumat dasturlari orqali sohaning huquqiy asoslari mustahkamlanib borilmoqda. Ushbu huquqiy asos tizimda ochiqlik, tanlov asosida o'qishga qabul qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berilishining kafolatidir. Shuningdek, kasb-hunar maktablari, texnikumlar, kollejlari

va texnologik universitetlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni kuchaytirish, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish sohada muhim natijalar olishga xizmat qilmoqda. Kasbiy ta'limda islohotlarni amalga oshirishda davlat tomonidan xorijiy investorlar, xalqaro ta'lim tashkilotlari, rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ta'lim maskanlari bilan mustahkam hamkorlik o'rnatish, ilg'or tajribalarni o'zlashtirish va sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, kasbiy ta'limning xalqaro integratsiyasi, dunyo miqyosida tan olingan sertifikatlarni joriy qilish, bitiruvchilarga xalqaro tan olingan diplomlar va guvohnomalar berish orqali ular uchun global mehnat bozorida keng imkoniyatlar yaratish zarur. O'zbekiston yoshlarining xorijiy davlatlarga chiqib malaka oshirishi, tajriba orttirishi, so'ngra vataniga qaytib, soha rivojiga munosib hissa qo'shishi mamlakat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi [3].

Bugungi globallashuv davrida kasbiy ta'lim sohasining oldida juda katta vazifalar turibdi. Rivojlangan davlatlar xalqaro maydonda mustahkam o'rin egallagan bo'lsa, bu, avvalo, ularning kadrlar tayyorlash tizimi yuqori darajada takomillashganligidan dalolat beradi. O'zbekiston ham o'zining kasbiy ta'lim tizimini zamon talablariga to'liq moslashtirish, jahon standartlariga yetkazish yo'nalishida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Natijada, o'quvchilarning kasbiy salohiyati yuksalib, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etayotgan, yangi bilim va ko'nikmalarga ega avlod voyaga yetmoqda. Kasbiy ta'lim sohasida natijadorlikni oshirish va mazkur tizimni yuqori bosqichga ko'tarishda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish, innovatsion yondoshuvlarni joriy qilish, yuqori malakali yetakchilar guruhini shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega. Boshqaruv samaradorligi yuqori bo'lgan muassasalarda sifatli kadrlar tayyorlash ancha yuksaladi. Kasbiy ta'lim muassasalari rahbarlari, o'qituvchilari va boshqa xodimlarning o'z faoliyatini doimiy yangilab borishi, malaka oshirish bilan bir qatorda, sohadagi eng yangi dasturlar, texnika va texnologiyalar bilan tanishib borishi sohaning zamon bilan hamnafas bo'lishini ta'minlaydi. Yangi islohotlar natijasida kasbiy ta'lim muassasalaridan chiqqan bitiruvchilar o'z kasblarini ilg'or texnologiyalar asosida o'rganishi, mehnat bozorida yuqori raqobatbardosh bo'lishi, mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi kutilmoqda. Kasbiy ta'lim fani, amaliyoti va tarbiyasi bir butunlikda olib borilishi, yosh avlodni nafaqat bilimli, balki vatanparvar,

ijtimoiy faolligi yuqori, zamonaviy bilimlarga ega, bilimini amaliyot bilan uyg'unlashtira oladigan, jamiyatda o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lgan kadrlar sifatida yetishtirish asosiy maqsadlardandir [4].

Kasbiy ta'lim agentligining asosiy vazifalari:

1. Kasbiy ta'lim tizimini muvofiqlashtirish quyidagilardan iborat:

(a) kasbiy ta'lim tizimini boshqarish hamda texnikumlar faoliyatini metodik jihatdan muvofiqlashtirish;

(b) davlat texnikumlarining direktor va direktor o'rinbosarlarining lavozimlariga nomzodlarni tanlash uchun suhbatdan o'tkazish;

(v) kasbiy ta'lim sohasida kelajak ehtiyojlarni hisobga olgan holda texnikumlarga qabul qilish parametrlari va ularning taqsimotini ishlab chiqish;

(g) kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etish;

(d) yangilangan kasbiy ta'lim dasturlari asosida o'quv dasturlari hamda fanlarni uzluksiz takomillashtirib borish va tasdiqlash uchun kiritish;

(e) o'quv jarayonida interaktiv, raqamli va innovatsion o'qitish texnologiyalarini joriy etish;

(j) kasbiy ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan zamonaviy resurslar, o'quv-uslubiy materiallar va darsliklarni yaratish hamda ular bilan texnikumlarni ta'minlash.

2. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish quyidagilardan iborat:

(a) pedagog kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil qilish;

(b) texnikumlarning pedagoglarini attestatsiyadan o'tkazish va natijasiga ko'ra kasbiy malaka darajasini belgilash hamda rag'batlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish.

3. Ilmiy-metodik faoliyatni tashkil etish:

(a) kasbiy ta'lim tizimi muassasalarida ilmiy-metodik faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

4. Infratuzilmani rivojlantirish:

(a) kasbiy ta'lim tizimi muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish va ular uchun zamonaviy infratuzilma yaratish;

(b) kasbiy ta'lim tizimi muassasalari infratuzilmasini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish.

5. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish:

- (a) kasbiy ta'lim tizimi muassasalari faoliyatiga xalqaro tajribani joriy etish;
- (b) xorijiy davlatchilar bilan hamkorlikda kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va kiritish, o'quvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish;
- (v) kasbiy ta'lim dasturlarining xalqaro akkreditatsiyasiga ko'maklashish [2].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kasbiy ta'lim tizimini zamonaviy tarzda isloh qilish, har bir bosqichda amaldagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlab, zamon va xalqaro talablar asosida takomillashtirish – mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Bu yo'ldagi har bir islohot, har bir yangilanish yurtimiz kelajagi, yoshlarimiz farovon hayoti, mustahkam iqtisodiy baza va taraqqiyotga xizmat qiladi. Tizimda qat'iy intizom, yuqori tafakkur, bilim va tajriba, zamonaviy texnologiyalar, o'z kasbini sevuvchi va mehnatdan qo'rqmaydigan yosh avlodni tarbiyalash kasbiy ta'lim islohotlarining asosiy mezoniga aylangan. Shu sababli kelgusida kasbiy ta'lim muassasalari soni va sifatini oshirish, o'qitish jarayonini global andozalar asosida olib borish, o'quvchilarning mustaqil o'rganishi, bilim va kasb malakasini rivojlantirish orqali mamlakatimizda zamonaviy kasb egalarining sonini ko'paytirishga erishiladi. Bu esa, O'zbekistonning ilg'or davlatlar qatoriga qo'shilishi yo'lidagi ishonchli kafolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PQ–53-son qarori “Kasbiy ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 23 oktyabrdagi PF–190-son Farmoniga ilova
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktabr № PQ–316 Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida

4. Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2018. -64 b.
5. Do'stmuhammad H. Xalq ta'limini moliyalashtirish. Mogorafiya. Iqtisodiyot, 2016.
6. Shamanova, Z. U. (2022). TA'LIM QONUNCHILIGIDAGI ISLOHOTLARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 42-52.
7. Baxodirov, O. (2023). TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISH BO 'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(18), 47-50.